



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI



VOL.3 № 2

2026

XOTIN-QIZLARNING SUD TIZIMLARIDAGI FAOLIYATI TAHLILI: XORIJIY TAJIRIBA MISOLIDA

Kamalova Xabiba Muxammadiyevna

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti, dotsent (PhD)

Annotatsiya

Ushbu maqolada xorijiy davlatlar sud tizimlariga ayol-sudyalarni kirib kelish jarayonlari va bu jarayonda yuzaga kelgan to'siqlar hamda uni oldini olish borasida amalga oshirilgan chora tadbirlar haqida fikr bildiriladi.

Kalit so'zlar: gender tenglik, gender statistikasi, egalitarizm, stereotip, kvota tizimi.

АНАЛИЗ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ЖЕНЩИН В СУДЕБНЫХ СИСТЕМАХ: НА ПРИМЕРЕ ЗАРУБЕЖНОГО ОПЫТА

Камалова Хабиба Мухаммадиевна

Университет экономики и педагогики, доцент (PhD)

Аннотация

В данной статье рассматриваются процессы интеграции женщин-судей в судебные системы зарубежных стран, а также препятствия, возникшие в этом процессе, и меры, принятые для их преодоления.

Ключевые слова: гендерное равенство, гендерная статистика, эгалитаризм, стереотип, система квот.

ANALYSIS OF WOMEN'S PARTICIPATION IN JUDICIAL SYSTEMS: THE CASE OF FOREIGN EXPERIENCE

Kamalova Xabiba Muxammadiyevna

University of Economics and Pedagogy, Associate Professor (PhD)

Abstract

This article examines the processes of integrating female judges into the judicial systems of foreign countries, as well as the obstacles that have arisen in this process and the measures taken to overcome them.

Keywords: gender equality, gender statistics, egalitarianism, stereotype, quota system.

Sudyalarning mustaqilligi to'g'risidagi BMTning asosiy tamoyillari -sudyalarni tanlashda ushbu shaxsning irqi, terisining rangi, jinsi, dini, siyosiy va boshqa e'tiqodi, milliy yoki ijtimoiy kelib chiqishi, mulkiy, tabaqaviy va boshqa holatiga qarab kamsitishga yo'l qo'yilmasligi kerakligini mustahkamlaydi.

O'zbekiston Respublikasining "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi qonunining 3-moddasiga ko'ra, gender statistikasi – davlat statistikasining jamiyat hayoti va faoliyatining barcha sohalarida xotin-qizlar va erkaklarning holati to'g'risida har bir jins bo'yicha alohida ko'rsatilgan ma'lumotlarni o'z ichiga olgan, har xil jinsdagi shaxslarning ijtimoiy-siyosiy hayotning barcha sohalaridagi tegishli holatini aks ettiradigan, gender muammolarini va jamiyatdagi munosabatlarni

yoritadigan qismi hisoblanadi[1].

Keyingi yillarda gender statistikasini yuritishga bo'lgan qiziqishning ortishiga qaramasdan, sud tizimida gender statistikasini yig'ish hali yetarli darajada yo'lga qo'yilmaganligini ko'rishimiz mumkin. BMTning Yevropa iqtisodiy komissiyasi sud tizimida gender statistikasini har tomonlama to'liq yuritadi[2].

BMT YEIKning 2017 yildagi ma'lumotlariga ko'ra, eng ko'p ayol-sudyalar Latviya (sud tizimida faoliyat yurituvchi umumiy xodimlar sonining 78,6%), Sloveniya (78,4%), Ruminiya (72,8%), Xorvatiya (70,6%), Serbiya (70,5%) sud tizimlarida va aksincha, eng kam ayol-sudyalar Buyuk Britaniya (28,4%), Armaniston (26,1%), Kanada (23,5%), Ozarbayjon (11,9%) sud tizimlarida faoliyat yuritadilar[3].

2000 yilga nisbatan sud tizimida ayol-sudyalar sonining o'sishi bo'yicha Shvetsiya (29,2%), Niderlandiya (24,0%), Portugaliya (21,2%), Avstriya (20,7%) va Irlandiya (20,1%) yetakchi mamlakatlar bo'lsa, 2016 yilga nisbatan Niderlandiya (8,7%), Gretsiya (4,7%), Malta (4,2%), Kipr (2,8%) va Germaniya Federativ Respublikasi (2,3%) sud tizimida ayol-sudyalar sonining o'sishi bo'yicha yetakchi mamlakatlarga aylandi[4].

Sud tizimlarida xotin-qizlarning ishtirokini ta'minlash borasida Yevropa mamlakatlari tarixiga nazar tashlasak, XIX asrda Yevropa qit'asi mamlakatlarida qabul qilingan konstitutsiyalarda tenglik tamoyili e'lon qilingan bo'lsa-da, ularda xotin-qizlarning ta'lim olish va yuridik kasbni egallash kabi asosiy huquqlari nazarda tutilmagan.

Sotsialistik harakatlarning vujudga kelishi xotin-qizlar va erkaklar o'rtasidagi ko'proq tenglikni belgilagan XX asrning yangi konstitutsiyalari uchun yo'l ochdi. Natijada xotin-qizlarning ta'lim olish va ma'lum lavozimlarni egallash huquqini istisno qilish bunday holatlar mavjud bo'lgan davlatlarning qonuniyligiga bo'lgan ishonchni susaytirdi.

Birinchi jahon urushi tugaganidan so'ng egalitarizm maqbul bo'la boshladi va yangi ijtimoiy tartibda xotin-qizlarga qimmatbaho inson resursi sifatida qarala boshlandi. Ikkinchi jahon urushi xotin-qizlarni jamiyat va kasbga integratsiyalashuvi tomon harakatni kuchaytirdi.

Garchi XX asrning boshlarida xotin-qizlar yuridik kasblarni egallash imkoniga ega bo'lgan bo'lsalarda, sudya, prokuror va davlat xizmatchilari lavozimlarini egallash ularga ovoz berish huquqini berish bilan bog'liq edi. Chunki G'arbiy Yevropaning aksariyat mamlakatlarida xotin-qizlar Birinchi jahon urushigacha yoki undan so'nggina ovoz berish huquqiga ega bo'ldilar. Masalan, Finlandiyada 1906 yilda, Buyuk Britaniyada 1928 yilda, ayrim mamlakatlarda Ikkinchi jahon urushi tugaganidan so'ng yani, Fransiyada 1944 yilda, Vengriyada 1945 yilda, Italiyada 1946 yilda va Gretsiyada 1952 yilda ovoz berish huquqiga ega bo'ldilar. Sharqiy Yevropa mamlakatlaridagi esa kommunistik tartib G'arbiy Yevropadan ko'ra avvalroq xotin-qizlarga yuridik kasbni egallash imkoniyatini berdi. Ammo bu har doim ham xotin-qizlar yaxshi lavozimlarni egallaganini anglatmagan[5].

Bu davrda Yevropa mamlakatlarida mavjud bo'lgan stereotiplardan tashqari, oiladagi rollarni taqsimlash bo'yicha an'anaviy tushunchalar ham xotin-qizlarning sudya lavozimlarini egallash imkoniyatiga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Bundan tashqari, Yevropa mamlakatlarida xotin-qizlarning o'ta yumshoq, hissiyotlarga beriluvchan, taxmin qilishga moyilligi va ularda xolislikning yetishmasligi haqidagi noto'g'ri tushunchalar mavjud bo'lib, bu holat odil sudlovni amalga oshirishning asosiy tamoyillariga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkinligiga dalil sifatida keltirilar edi. Ushbu tarixiy shart-sharoitlar natijasida Yevropa mamlakatlarining aksariyat sud tizimlarida ayol-sudyalar XX asrga kelibgina paydo bo'lishdi.

Shunday qilib, xotin-qizlar XX asr davomida sud tizimida ayol-sudyalar soni ko'payishga turtki bergan chora-tadbirlar tufayli yuqoridagi to'siqlarni yengib o'tishga majbur bo'ldilar.

Ko'rilgan chora-tadbirlar orasida yuridik ta'lim muassasalarida talaba qizlarning

sonini ko'paytirish yetakchi o'rin tutdi. XX asrning birinchi yarmida yuridik ta'lim muassasalarida talaba qizlarning soni nisbatan kam edi. 1970-1980-yillarga ularning soni o'sa boshladi. 1990 yillarga kelib esa yuridik ta'lim muassasalarida ta'lim olayotgan talaba qizlarning soni bir necha barobarga ko'paydi, bu esa, o'z navbatida, advokatura, notariat, xususiy yuridik firmalar va boshqa sohalarida ayol-yuristlar sonining ko'payishiga olib keldi. Bu davrda ayol-yuristlar katta muvaffaqiyatga erishdilar va erkak hamkasblari bilan munosib ravishda raqobatlasha boshladilar.

Shunday qilib, boshqa tarmoqlar bilan munosib raqobatlasha olishlari uchun sud tizimlari xotin-qizlarning ehtiyojlarini inobatga olgan holda, ular uchun yanada qulay mehnat sharoitlarini yaratish bo'yicha chora-tadbirlar ko'rildi. Bunday qulay ish sharoitlariga quyidagilar kirdi: bolalarni parvarishlash uchun kafolatlangan ta'til, to'liq bo'lmagan ish kunida ishlash imkoniyati va daromadlar bo'yicha kamsitishlarning yo'qligi (ish haqining qat'iy belgilangan darajasi) va boshqalar.

Biroq sudyalik lavozimi uchun maxsus tanlov jarayoni mavjudligi sababli, ayol-sudyalarining soni ancha past darajada saqlanib qolaverdi. Sababi necha yillar davomida sudyalik "erkaklar kasbi" sifatida qaralgan noto'g'ri fikr shakllanib, sudyalik lavozimiga tanlash erkaklar tomonidan amalga oshirilgan va ular nomzodlarni baholash jarayonida sudyalik "erkaklar kasbi" degan fikrdan kelib chiqib, erkak nomzodlarni tashlash afzal ko'rilgan.

Ayol sudyalarni sonini oshirish uchun sudyalik lavozimiga nomzodlarni tanlashga vakolatli organlar mavjud bo'sh ish o'rinlari to'g'risidagi ma'lumotni xotin-qizlar o'rtasida tarqatish bo'yicha maqsadli ishlarni amalga oshirishni boshladi. Bundan ko'zlangan maqsad minimal mezonlarga javob beradigan imkon qadar ko'proq xotin-qizlar sudyalik lavozimiga hujjatlar topshirish orqali erkak nomzodlar bilan raqobatlashishni ta'minlashdan iborat edi. Ammo yuqorida keltirilgan yopiq doira sababli ushbu chora ayol-sudyalar sonining sezilarli darajada ko'payishiga olib kelmadi.

Shuning uchun keying yillarda kvota tizimini joriy qilish masalasi keng muhokama qilinmoqda. Ayol-sudyalarni tanlash uchun kvota tizimini joriy etish keng tan olinmagan. Shu sababli bunday tizimlarni joriy etish hozirgi kunga qadar ko'p jihatdan muhokama qilinmoqda. Natijada ayol-sudyalarni tanlash uchun bunday kvota tizimlari xalqaro sudlarda (Inson huquqlari bo'yicha Yevropa sudi, Xalqaro jinoyat sudi) ko'proq uchraydi, aksincha, milliy sud tizimlarida esa nisbatan kam uchraydi[6].

Belgiya Konstitutsiyaviy sudga ayol-sudyalarni tanlash uchun kvota tizimini muvaffaqiyatli tatbiq etdi. Qonunga muvofiq, Belgiya Sudyalar oliy kengashi 4 nafar xotin-qizlar va 4 nafar erkaklardan iborat bo'lishi kerak.

Italiya Sudyalar oliy kengashining 2014 yil 2 apreldagi qarori bilan yuqori lavozimlarni egallash va vakillik organlarida ishtirok etishlari uchun xotin-qizlarga vaqtinchalik ustunlik berish uchun bir qator ijobiy chora-tadbirlar, xususan, kechiktirib bo'lmaydigan ustunlik sifatida gender kvotasini qabul qildi[7].

Ayol-sudyalar sonini ko'paytirish bo'yicha turli mamlakatlar tomonidan ko'rilgan yuqorida qayd etilgan chora-tadbirlar tarmoqlararo chora-tadbirlar bo'lib, ko'pincha sud tizimlariga kirmaydigan organlarning ishtirokini talab etadi.

Shunday qilib, sud tizimida xotin-qizlar ishtirokini oshirish uchun quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish lozim:

- yuridik ta'lim sohasidagi gender tafovutni bartaraf etish;
- nomzodlar qabul qilinadigan va sudyalari zaxirasi shakllantiriladigan tuzilmalar va yuridik kasblarda xotin-qizlar ishtirokini oshirish;
- tanlov komissiyalarining tarkibida gender xilma-xillikni ta'minlash va sudlarda

gender muvozanatga erishish komissiyaning asosiy vazifalaridan biri ekani haqida komissiya to'g'risidagi nizomga o'zgartirish kiritish orqali komissiya faoliyatini takomillashtirish;

- sudyalik kasbini xotin-qizlar uchun jozibadorligini oshirish maqsadida mehnat sharoitlarini yaxshilash.

Sud tizimlarida xotin-qizlar ishtirokini oshirish bo'yicha xalqaro tajribani o'rganish ayol-sudyalar ishtirokining turli darajalarini va ularning sonini oshirishga ta'sir qiluvchi turli omillarni ko'rsatdi. Bunday tafovutlar, asosan, mamlakatlarning tarixiy jihatlari va rivojlanish sharoitlariga bog'liq.

Xususan, xorijiy mamlakatlar tajribasining tahlili ko'pgina xorijiy mamlakatlarning sud tizimi ayol-sudyalar uchun kvota tizimini joriy etishni qo'llab-quvvatlamasligini ko'rsatdi. Ular o'z pozitsiyalarini yurisprudensiya sohasida xotin-qizlarning soni yetarli darajada emasligi bilan asoslaydilar. Shu sababli ayrim davlatlarda kvota tizimining o'rniga maqsadli ko'rsatkich tizimlarini joriy qilish taklif qilinmoqda, ya'ni "barcha sudlarda xotin-qizlar uchun 30 foizlik kvotaga erishish" o'rniga "2025 yilga qadar ayol-sudyalar sonini 5 foizga oshirish" vazifasi qo'yiladi. Biroq birinchi navbatdagi chora sifatida o'rganilgan mamlakatlarning bir qanchasida sudyalarni tanlash va tayinlash uchun mas'ul bo'lgan organ a'zolari uchun gender kvota tizimini joriy etish qo'llab-quvvatlangan.

Bu jarayonni Respublikamiz miqyosida tahlil qilsak, O'zbekiston Respublikasida bu borada ish olib boradigan organ Sudyalar oliy kengashi hisoblanadi. Sudya lavozimiga nomzodlarni tayyorlaydigan o'quv muassasasiga "tenglik" degan qoida asosida ish olib borilib, ushbu qoidaga muvofiq, "teng sharoitlarda ayol nomzodlar o'qishga qabul qilinadi". O'zbekistonda bunday ta'lim muassasasi Sudyalar oliy kengashi qoshidagi Sudyalar oliy maktabi hisoblanadi.

2021 yildan boshlab O'zbekistonda sudyalari faqat Sudyalar oliy maktabi tinglovchilari orasidan tayinlanishini inobatga olgan holda, mazkur chora sud tizimida xotin-qizlar ishtirokini yaxshilash bo'yicha keyingi chora-tadbirlar uchun zarur bo'lgan ayol-sudyalarning katta qismini shakllantirish imkonini berdi. O'zbekistonda hozirgi ayol-sudyalarning katta qismi o'z faoliyatlarini sudlarda (turli lavozimlarda) boshlaganlar.

Jumladan, 2021 yil 28 maydagi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining Qarori bilan "O'zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasi" tasdiqlangan bo'lib, unga ko'ra 2030 yilga qadar sudyalari orasida xotin-qizlar ulushini 30 foizga ko'tarish belgilangan.

2022 yilda sud tizimida faoliyat ko'rsatayotgan sudyalarning 16 foizi ayol sudyalari hissasiga to'g'ri keldi. Oliy suda esa bu ko'rsatkich 21 foizni tashkil etdi. Jumladan, 5 nafar ayol sudyalari viloyat sudlari raislari va rais o'rinbosarlari lavozimida, 75 nafar ayollar esa Sudyalar oliy kengashi, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi va viloyat sudlarida sudya lavozimida, 20 nafar ayollar bo'lsa tuman, shahar va tumanlararo sudlarining raisi lavozimida faoliyat olib bormoqda. Shuningdek, 2022-2023 o'quv yilida Oliy sudyalik maktabining magistratura bosqichiga qabul qilingan 76 nafar talabaning 16 nafari yoki 23 foizi ayollardan iborat.

Ammo shu bilan birga, sud xodimlarini ishga qabul qilish mexanizmi yetarlicha shaffof emas va xodimlar sud raislari tomonidan qabul qilinadi. Ushbu mexanizmning shaffofligi va oshkorligini oshirish uchun sud xodimlarini markazlashtirilgan tartibda tanlash va ishga qabul qilish imkoniyatini ko'rib chiqish lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. <https://lex.uz/docs/-4494849>
2. http://www.gender.cawater-info.net/knowledge_base/glossary/g.htm

3. <https://w3.unece.org/PXWeb/ru/Table?IndicatorCode=32#>
4. Sud tizimlarida xotin-qizlar ishtirokini oshirish bo'yicha xorijiy tajriba tahlili. Toshkent.: 2020. 11-B.
5. Sud tizimlarida xotin-qizlar ishtirokini oshirish bo'yicha xorijiy tajriba tahlili. Toshkent.: 2020. 13-B.
6. Nienke Grossman. Achieving Sex-Representative International Court Benches, American Journal of International Law. 82 (2016).
7. The Advancement of Women in the Judiciary by Livia Pomodoro – Women and the Judiciary Three perspectives – Permanent Mission of Italy to the United Nations, 2015.